



# Innovative approaches to developing independent thinking skills in primary school students

Aygul URAZIMBETOVA<sup>1</sup>

Profi University

## ARTICLE INFO

### Article history:

Received June 2025

Received in revised form

15 July 2025

Accepted 15 July 2025

Available online

25 August 2025

### Keywords:

primary education,  
independent thinking,  
innovative approaches,  
critical thinking,  
reflection,  
STEAM education.

## ABSTRACT

The article examines the necessity of developing independent thinking skills in primary school students. The relevance of innovative approaches in fostering independent thinking was substantiated. The study highlighted that problem-based learning, project-based learning, the STEAM approach, interactive methods, and digital technology-based approaches were identified as effective tools. Additionally, elements of intrinsic motivation, personal interest, and reflection that stimulate independent thinking were analyzed. The role of the teacher's professional preparation, methodological expertise, and educational stance in cultivating critical thinking, initiative, and a sense of responsibility in students was explored. The schematic model proposed in the article further elucidates the didactic potential of innovative approaches. The article concludes that developing independent thinking at an early age enhances the effectiveness of learning in subsequent stages of education.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss4-pp43-50>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

# Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari

## ANNOTATSIYA

### Kalit so'zlar:

boshlang'ich ta'lim,  
mustaqil fikrlash,  
innovatsion yondashuvlar,  
tanqidiy fikrlash,  
refleksiya,  
STEAM ta'limi.

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zarurati o'rganildi. Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning dolzarbligi asoslab berildi. Tadqiqot davomida muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, STEAM yondashuvi, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar asosidagi yondashuvlar samarali vosita sifatida aniqlangani ta'kidlandi. Shuningdek, mustaqil fikrlashni

<sup>1</sup> PhD, Acting Associate Professor, Profi University, Tashkent, Uzbekistan. E-mail: [Oygul.phd.1@mail.ru](mailto:Oygul.phd.1@mail.ru)

rag'batlantiruvchi ichki motivatsiya, shaxsiy qiziqish va refleksiya elementlari tahlil qilindi. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati va tarbiyaviy pozitsiyasining o'quvchilarda tanqidiy fikr, tashabbus va mas'uliyat hissini shakllantirishdagi o'rni ko'rib chiqildi. Maqolada taklif etilgan sxematik model orqali innovatsion yondashuvlarning didaktik imkoniyatlari kengroq yoritildi. Shunday xulosaga kelindiki, mustaqil fikrlashni erta yoshda rivojlantirish keyingi ta'lim bosqichlarida o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

## **Инновационные подходы к развитию навыков самостоятельного мышления у учащихся начальных классов**

### **Ключевые слова:**

начальное образование, самостоятельное мышление, инновационные подходы, критическое мышление, рефлексия, STEAM-образование.

### **АННОТАЦИЯ**

В статье исследована необходимость формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся начальных классов. Обоснована актуальность инновационных подходов в развитии самостоятельного мышления. В ходе исследования было выявлено, что проблемное обучение, проектное обучение, подход STEAM, интерактивные методы и подходы, основанные на цифровых технологиях, являются эффективными средствами. Также были проанализированы элементы внутренней мотивации, личного интереса и рефлексии, стимулирующие самостоятельное мышление. Рассмотрена роль профессиональной подготовки, методического мастерства и воспитательной позиции учителя в формировании у учащихся критического мышления, инициативности и чувства ответственности. Схематическая модель, предложенная в статье, шире раскрывает дидактические возможности инновационных подходов. Сделан вывод о том, что развитие самостоятельного мышления в раннем возрасте повышает эффективность усвоения знаний на последующих этапах обучения.

XXI asr ta'limi shiddat bilan o'zgarayotgan va raqobatbardosh shaxsni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy muhitda faoliyat yuritmoqda. Bunday sharoitda ta'limning asosiy vazifalaridan biri – shaxsda mustaqil fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritish va muammolarni ijodiy hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, bu jarayonning boshlang'ich ta'lim bosqichida yo'lga qo'yilishi shaxsiy rivojlanishning mustahkam poydevorini yaratadi [6].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri hali shakllanish bosqichida bo'lgani bois, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish faqatgina an'anaviy usullar bilan emas, balki innovatsion yondashuvlar orqali amalga oshirilishi zarur. Bunday yondashuvlar ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirish, ularning faolligini oshirish, fikr yuritish, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish va qaror qabul qilishga tayyorlash imkonini beradi [3].

Innovatsion yondashuvlarning dolzarbligi shundaki, ular nafaqat bilim berishni, balki o'quvchining kreativ tafakkuri, o'z fikrini erkin bildirish qobiliyati, ijtimoiy faolligi va ongli qaror qabul qilish salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'rganish, kasbiy yo'nalishni to'g'ri tanlash va hayotiy vaziyatlarga moslashish uchun muhim asos yaratadi [12].

Boshlang'ich ta'lim – shaxs kamoloti va uning har tomonlama rivojlanishini belgilovchi poydevor bosqichidir. Bu bosqichda ta'lim jarayonining metodik asoslari, didaktik yondashuvlari hamda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda boshlang'ich sinf o'qituvchisiga faqat bilim beruvchi emas, balki bolalarning fikrlash doirasini kengaytiruvchi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga undovchi tarbiyachi sifatida qaralmoqda. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy o'qituvchidan yuksak kasbiy tayyorgarlik, yangiliklarga ochiqlik va shaxsiy namuna bo'lish fazilatlarini talab qiladi [9].

Boshlang'ich ta'lim metodikasida o'quvchining shaxsiy rivojlanishi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Dars jarayonida bolalarni mustaqil fikrlashga, mantiqiy tahlil qilishga, mavzuni chuqur anglab, o'z xulosalarini asoslashga o'rgatish muhim vazifa hisoblanadi. Bunda yozma topshiriqlar, mavzulashtirilgan muammoli vaziyatlar, muloqotga asoslangan metodlar, shuningdek, taqqoslash va solishtirish texnikalari muhim o'rin tutadi. O'qituvchi faoliyati o'quvchilarni faqatgina faktlarni yodlash emas, balki ularni fikr yuritish, ijodiy yondashuv orqali tushunishga yo'naltiradi [1].

Ta'lim-tarbiya jarayonida metodik yondashuv o'quv materialining o'zlashtirilishiga xizmat qilishi barobarida, o'quvchining individual imkoniyatlarini ochib berishi, ularni shaxs sifatida shakllantirishi lozim. Bu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi – kichik maktab yoshidagi bolalarning shaxsiy ehtiyoj va qobiliyatlariga moslashtirilgan, faoliyatga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishdir. Bu jarayon o'quvchining o'z bilimini mustaqil ravishda izlab topishi, uni amaliyotda qo'llay olishi va o'z fikrini asosli ifoda eta olishini ta'minlashi zarur [15].

Yosh avlod tarbiyasi har doim jamiyatning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Bu jarayonning muvaffaqiyati, eng avvalo, pedagog shaxsining kasbiy mahoratiga, uning kasbga bo'lgan sadoqati va axloqiy fazilatlariga bog'liqdir. O'qituvchining kasbiy saviyasi va professional tayyorgarligi nafaqat bilim berish, balki yoshlarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish, ularni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odob-axloq kabi yuksak qadriyatlar asosida tarbiyalashda hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqadi [4].

O'qituvchi bugungi kunda nafaqat o'quv dasturlarini puxta egallagan mutaxassis, balki kasb etikasi me'yorlarini o'z hayot faoliyatiga uyg'unlashtirgan, kasbga fidoyilik bilan yondashadigan inson bo'lishi lozim. Aynan mana shunday fidoyilik bugungi davr ta'lim-tarbiyasi oldida turgan yangicha vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, pedagogik faoliyatda axloqiy qadriyatlar, odob-axloq normalarining o'rni va roli ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilinmoqda.

Hozirgi zamon o'rta va oliy maktab bitiruvchisidan kelgusi ming yillikda global o'zgarishlar davrida yashab, faoliyat yurita oladigan, postindustrial jamiyat talablariga mos keluvchi shaxs sifatida rivojlanishi kutiladi. Bunday shaxsda bir qator muhim kompetensiyalar shakllangan bo'lishi zarur [10].

Avvalo, moslashuvchanlik va o'zlashtirish qobiliyati yetakchi o'rinda turadi. U turli o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlarda tez va samarali harakat qilish, yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olish, ularni turli kontekstlarda qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Bu kompetensiya shaxsga yangi vazifalarni hal qilishda yo'nalish beradi, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashishga asos yaratadi [7].

Shuningdek, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyati shaxsning intellektual mustaqilligini belgilaydi. Real hayotdagi muammolarni aniqlash, zamonaviy texnologiyalar yordamida ularni tahlil qilish va oqilona bartaraf etish yo'llarini izlash qobiliyati bitiruvchining raqobatbardoshligini ta'minlaydi. U o'z bilimlarini nafaqat o'zlashtiradi, balki ularni qanday va qayerda qo'llash mumkinligini anglaydi hamda yangi g'oyalarni ilgari sura oladi [16].

Axborot bilan samarali ishlash – bu hozirgi kunda zaruriy kompetensiyalardan biridir. Shaxs axborotni tanlay olish, tahlil qilish, muammo yechimini izlash uchun gipotezalar ilgari surish, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash, xulosalar chiqarish va ularni asoslab bera olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu esa bilimlarni amaliyotda qo'llash, yangi muammolarni ilg'ash va hal qilishga imkon beradi [2].

Ijtimoiy muloqot va hamkorlikda ishlash qobiliyati esa har qanday sohada muvaffaqiyatning asosi hisoblanadi. Shaxs turli ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro hamkorlikda ishlay olish, madaniyatlararo muloqotga kirisha olish, nizoli vaziyatlarni to'g'ri boshqarish va murosaga kela olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, o'z-o'zini rivojlantirish, refleksiya va ichki baholashga bo'lgan ehtiyoj zamonaviy insonda mavjud bo'lishi kerak. Bu orqali shaxs o'z axloqiy qarashlari, madaniy saviyasi va aql-idrokini takomillashtirishga intiladi. Reflektiv fikrlash – bu nafaqat o'z harakatlarini tahlil qilish, balki ularning jamiyatga ta'sirini baholash, shaxsiy o'sishga yo'naltirish demakdir [3].

Bugungi kunda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, shuningdek, o'quvchilarni hayotga tayyorlashda ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish zaruriyati ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Maktab va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilariga qo'yilayotgan zamonaviy talablar shundan dalolat beradiki, ular nafaqat tayyor bilimlarni egallovchi, balki ularni mustaqil izlab topuvchi, tahlil qiluvchi va amaliyotga tatbiq eta oluvchi shaxslar bo'lishi lozim [16].

Psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogika va psixologiya fanlarining deyarli barcha klassik va zamonaviy tadqiqotlari to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita holda o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish muammosini yoritib kelmoqda. Bu jarayon o'quvchi va talabada bilim olishga nisbatan ongli, faol va reflektiv munosabatni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, boshlang'ich ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan davrda mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash, o'zini baholash va rivojlantirish kabi kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirib borish talab qilinadi. Mustaqil ishlash ko'nikmalari esa nafaqat nazariy bilimni egallash, balki ijodiy yondashuv, mas'uliyat hissi va shaxsiy intellektual salohiyatni ro'yobga chiqarishda asosiy omil hisoblanadi [8].

Hozirgi zamon ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim shunchaki o'qituvchidan mustaqil bilim olish degani emas, balki o'quvchining ichki motivatsiyasi va o'rganishga bo'lgan ehtiyoji bilan chambarchas bog'liq bo'lgan faoliyatdir. Mustaqil ta'limning asosiy rag'batlantiruvchi omillaridan biri bu – o'quvchining shaxsiy qiziqishlari, intellektual ehtiyojlari va o'rganishga bo'lgan ichki istagini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi [4].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar ta'lim mazmunli, hayotiy jihatdan ahamiyatli va foydali bo'lsa, o'quvchi uni o'z shaxsiy maqsadlariga erishish vositasi sifatida qabul qiladi. Natijada, ta'limga bo'lgan ichki ehtiyoj ortadi, o'rganish jarayoni ongli, faol va mustahkam motivatsiyaga asoslanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, muammoni mustaqil hal qilish, qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Aksincha, o'quvchida qiziqish uyg'otmaydigan, u uchun ahamiyatsiz bo'lgan ta'lim faoliyatlari esa tashqi motivatsiyaga – ya'ni baho, jazolanish yoki maqto'v kabi tashqi rag'batlantirish vositalariga bog'liq holda shakllanadi. Bunday holatda o'quvchi bilimni o'zlashtirish uchun emas, balki tashqi mukofot yoki jazodan qochish uchun harakat qiladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchining tashabbuskorligini susaytiradi, uning o'z manfaatlari yo'lida mustaqil harakat qilish istagini pasaytiradi va o'rganishga bo'lgan tabiiy ehtiyojni cheklab qo'yadi [18].

Mustaqil ta'lim nafaqat bilim egallash vositasi, balki shaxsiy rivojlanish va mas'uliyatli qaror qabul qilishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Zamonaviy sharoitda shaxslardan muammolarni chuqur tahlil qilish, mavjud holatlarni baholash, oqilona qarorlar qabul qilish va ularni amaliy harakatlar orqali ro'yobga chiqarish talabi kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday kompetensiyalar esa faqat mustaqil izlanish va o'rganish jarayonida shakllanishi mumkin.

Tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida har bir inson o'z hayoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, umr bo'yi o'rganish (lifelong learning) tamoyilini hayotga tatbiq etishni talab etadi. Yangi sharoitlarga moslasha oladigan, yangilikni o'zlashtira oladigan va tanqidiy fikrlay oladigan shaxslar jamiyatda muvaffaqiyatga erishadi [3].

Bugungi kunda kundalik hayotning barcha sohalarida – mehnat bozori, oila, ijtimoiy munosabatlar – doimiy o'zgarishlar sodir bo'layotgani sababli, shaxsning bu o'zgaruvchan talablarga moslashuvchanligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mustaqil ta'lim aynan shu jihatdan ijobiy rol o'ynaydi: u shaxsga yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, kasbiy yo'nalishni o'zgartirish, hayotiy vaziyatlarda o'zini to'g'ri boshqara olish imkoniyatini beradi.

Ta'lim jarayonining samaradorligi faqat bilim berish bilan emas, balki o'quvchini o'z o'quv faoliyatining faol subyektiga aylantirish bilan belgilanadi. Shu sababli, o'qituvchilar o'quvchilarni o'z ta'limlarining har bir bosqichini boshqarishga o'rgatishlari zarur. Bu esa faqat bilim o'zlashtirish emas, balki o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, rejalashtirish, nazorat qilish va baholash kabi muhim metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi [16].

Bunday yondashuv quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

➤ Maqsadlarni belgilash o'quvchi o'z oldiga aniq, real va baholanadigan o'quv maqsadlarini qo'ya olishi kerak. Bu bosqichda o'rganuvchi nimaga erishishni xohlayotganini tushunadi va bu maqsadni o'zlashtirishga yo'naltirilgan harakatlarga asos soladi.

➤ Maqsadlarga erishish strategiyalarini aniqlash va ishlab chiqish Har bir maqsadga qanday yo'llar bilan erishish mumkinligi rejalashtiriladi. Bu bosqichda o'quvchi individual yoki guruhli o'quv strategiyalarini tanlaydi, zarur usullarni ishlab chiqadi va ularni tartib bilan qo'llaydi.

➤ O'quv rejalarini tuzish – ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli boshqarish uchun vaqt, resurs va bosqichlarni belgilovchi reja ishlab chiqiladi. Bu reja o'quvchining o'z faoliyatini muvofiqlashtirishi, bosqichma-bosqich yuritishi uchun yo'l xaritasi bo'lib xizmat qiladi.

➤ O'rganish jarayoni haqida mulohaza yuritish – bu bosqichda o'quvchi o'z o'rganish jarayonini tahlil qiladi, muammoli sohalarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo'yicha echimlar izlaydi. Bunda reflektiv fikrlash va muammoni tan olish, tahlil qilish va samarali yo'l topish muhim ahamiyat kasb etadi.

➤ Tegishli manbalar va yordamni aniqlash va tanlash – o'quvchi kerakli ma'lumot, yordamchi materiallar, texnologik vositalar yoki pedagogik maslahatlar kabi resurslardan foydalana olishi kerak. Shuningdek, bilimni mustahkamlash uchun manba tanlash madaniyati shakllanadi.

➤ O'z taraqqiyotini baholash – o'quvchi o'z faoliyati natijalarini baholash, erishilgan yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash orqali o'zini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi. Bu jarayonda baholash mezonlarini belgilash, yutuqlarni tahlil qilish va kelgusi rejalarga asos bo'ladigan xulosalar chiqarish muhim o'rin tutadi.

Bugungi ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan o'qitish tamoyili asosida qurilayotgani sababli, o'quvchilarni fikrlovchi, tahlil qiluvchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi – bolalarda tafakkur, dunyoqarash, kuzatish va mulohaza yuritish ko'nikmalari shakllana boshlaydigan davr bo'lgani uchun, mustaqil fikrlashni rivojlantirish bu davrning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil fikrlash o'quvchining o'z fikrini bildira olishi, muammoli vaziyatlarda yechim topa olishi, qaror qabul qilishi va o'z xulosalarini asoslab bera olishini anglatadi. Bu ko'nikmalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar muhim rol o'ynaydi.



**1 rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar modeli**

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash jarayonida o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchini o'z bilim faoliyatining faol subyektiga aylantirish, ya'ni uni muammoli vaziyatlarga javob topa oladigan, izlanishga layoqatli va fikr yurita oladigan darajaga yetkazishdir.

Yuqoridagi sxemada (1-rasm) boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar tizimli tarzda ifodalangan. Ushbu yondashuvlar: muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, STEAM texnologiyalari, interfaol o'yinlar, refleksiya va raqamli texnologiyalar asosida ta'lim berishdan iborat.

Bu yondashuvlarning har biri o'z mazmuniga ega bo'lib, ular o'quvchini o'z fikrini mustaqil bildirishga, qaror qabul qilishga, natija chiqarishga va yangicha yondashuvlarni taklif etishga o'rgatadi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar asosida tahlil qilish, ijodiy fikrlar yaratish va guruhda ishlash ko'nikmalarining bosqichma-bosqich shakllanishi o'quvchilarda tafakkur chuqurlashuviga xizmat qiladi.

### **XULOSA**

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati keng qamrovda tahlil qilinib, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni integratsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari yoritildi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati faqat an'anaviy o'quv metodlari orqali emas, balki shaxsga yo'naltirilgan, faol, texnologik va ijodiy yondashuvlar vositasida samarali rivojlantiriladi.

Tadqiqotda muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, STEAM yondashuvi, refleksiya, raqamli texnologiyalar va interfaol metodlar mustaqil fikrlashni shakllantirishda asosiy vosita sifatida ko'rib chiqilgan. Bu yondashuvlar o'quvchining faolligi, tahliliy fikrlashi, ijodkorligi, axborotni qayta ishlash malakasi, qaror qabul qilishga tayyorligi va o'z fikrini asoslay olishi kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Maqolada ta'kidlanganidek, o'qituvchining kasbiy saviyasi, shaxsiy namuna ko'rsatishi va metodik madaniyati o'quvchilarning mustaqil intellektual o'sishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu jihatlar tanqidiy fikrlovchi, ijtimoiy mas'uliyatli va yangilikka ochiq shaxsni tarbiyalashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Bashina, T. F., & Ilin, Ye. P. (2009). *Psixologiya, kreativlik, mahorat*. Sankt-Peterburg–Moskva: Piter.
2. Braus, J. A., & Wood, D. (1993). *Environmental education in the schools: Creating a program that works*. Washington, DC: Peace Corps. Retrieved from [http://www.peacecorps.gov/library/pdf/M0044\\_enveduc.pdf](http://www.peacecorps.gov/library/pdf/M0044_enveduc.pdf)
3. Cluster, D. (2001). What is the critical thinking? *Change: Intercultural Journal about Thinking Development through Reading and the Letter*, 4, 36–40.
4. Dewey, J. (1997). *Psychology and pedagogy of thinking: How we think* (N. M. Nikolskaya, Trans.). Moscow: Sovershenstvo.
5. Dewey, J. (2009). *How we think*. Retrieved May 20, 2009.
6. Elder, L., & Paul, R. (2008). *Defining critical thinking*. Foundation for Critical Thinking. Retrieved from <http://www.criticalthinking.org/pages/defining-critical-thinking/766>
7. Galperin, P. Y. (2012). The problem of ontogenesis of the human psyche. *National Psychological Journal*, 2(8), 9–13.
8. Halpern, D. (2000). *Psychology of critical thinking*. Saint Petersburg: Piter.
9. Ishmuxamedov, R. J. (2009). *Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari* (2-kitob). Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.
10. Ishmuxamedov, R. J., Abduqodirov, A., & Pardayev, A. (2010). *Tarbiyada innovatsion texnologiyalar: ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar*. Toshkent: Iste'dod.
11. Jumaniyozova, M. T., & Ishmuxamedov, R. J. (2010). *Ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish: Ustoz o'qituvchilar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma*. Toshkent.

12. Kapterev, P. F. (1877). *Educational psychology for school-teachers, caregivers and educators*. Saint Petersburg: A. M. Kotomin Printing.
13. Komensky, J. A. (1875). *The great didactics*. Saint Petersburg: Peter.
14. Leontiev, A. N. (2000). *Lectures on general psychology*. Moscow: Smysl.
15. Levin, P. (2002). *Teamwork tutoring: Helping students working on group projects to develop teamwork skills*. Retrieved from [http://www.teamwork.ac.uk/MGS\\_teamwork\\_tutoring.PDF](http://www.teamwork.ac.uk/MGS_teamwork_tutoring.PDF)
16. Pidkasisty, P. I. (1972). *Independent work of students: Didactic analysis of the process and structure of the play and creativity*. Moscow: Pedagogy.
17. Polat, E. S. (2002). *New pedagogical and information technologies in the education system: Manual for students of pedagogical universities and system of improvement of professional skill of teachers*. Moscow: Akademiia.
18. Toshkent islom universiteti. (2013). *Dinshunoslik asoslari: o'quv qo'llanma*. Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.